



## **O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG'I**

**2024-yil "08" noyabr**

**435-I/CH-son**

### **"Antikorrupsiya bilimdoni" mavzusidagi bilimlar bellashuvini o'tkazish to'g'risidagi 2024-yil "30"-may kunidagi 228-I/CH-son buyrug'iiga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktik ishlarni yanada kuchaytirish, talaba- yoshlarning bu borada bilimlarini mustahkamlash maqsadida

#### **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-may kunidagi Chora-tadbirlar rejasi ijro uchun qabul qilinsin.
2. Universitet rektorining 2024-yil 30-maydagi "Antikorrupsiya bilimdoni" mavzusidagi bilimlar bellashuvni o'tkazish to'g'risidagi 228-I/CH-son buyrug'iining 1-ilovasi mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.
3. Bellashuv hakamlar hay'ati a'zolari ro'yxati 2-ilovaga, ishtirokchi jamoalar tomonidan beriladigan ariza namunasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Kafedra mudirlariga tanlovni e'lon qilish va nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.
5. Reja-moliya bo'limi Sh.Ergashev hamda Bosh hisobchi M.Mahamovlar bellashuv g'oliblarini rag'batlantirish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni talabalarni rag'batlantirish mablag'lar hisobidan amalga oshirish chorasini ko'rsin.
6. Universitet jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi I.Sarimsoqov bellashuv o'tkazilishi bilan bog'liq jarayonlarni universitetning veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar va OAV larda keng yoritib borishni ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor Sh.Mirzanov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sod Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 19-bandida ko‘rsatilgan vazifalarning ijrosini ta’minalash yuzasidan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-may kunidagi Chora tadbirlar rejasi.

**Rektor**



**R.Matkarmov**

*Universitetning*  
2024-yil "08" noyabrdagi  
435-sonli buyrug'iqa I-ilova

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba-yoshlari o'rtaida "Antikorrupsiya bilimdoni", "Yoshlar korrupsiyaga yo'q deydi", "Korrupsiyasiz-hayot", "Biz Korrupsiyaga qarshimiz" mavzularida o'tkaziladigan bilimlarbellashuvining NIZOMI**

### **I. Umumiyligida qoidalar**

**I.** Mazkur nizom universitetda tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtaida "Antikorrupsiya bilimdoni" mavzusida bilimlar bellashuvi (keyingi o'rnlarda bellashuv deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

### **II. Bellashuvining maqsad va vazifalari:**

#### **2. Bellashuvining maqsadi:**

Talaba-yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oqibatlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shartsharoitlarni bartaraft etish yo'llarini topish, hamda korrupsiyaning turlari, kelib chiqish sabablari va uning oqibatlari haqida ma'lumot berish, talaba- yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan.

#### **3. Bellashuvining vazifalari:**

Talaba-yoshlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha savodxonligini oshirish; jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirishga hissa qo'shish; jamoatchilik etiborini korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga qaratish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonlariga keng jamoatchilikni jalb qilish orqali samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlash; korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro davlatlar tajribasini o'rganish.

### **III Bellashuvini tashkil etish va o'tkazish tartibi**

4. Bellashuv (tashkilotchisi) universitetning Yoshlar yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimlari tomonidan tashkil etiladi. Bellashuvda faqat **kunduzgi ta'lim** talabalari ishtirok etishlari mumkin.

5. Bellashuvni tashkil etish va uni o'tkazish vazifasi tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi,

6. Har bir jamoada **6** nafardan iborat bo'lgan ishtirokchi bo'lishi va jamoa a'zolari bitta kafedradan bo'lishi shart.

7. Mazkur bellashuv jamoalar sonini inobatga olgan holda 3-bosqichda o'tkazish nazarda tutiladi (agarda qatnashuvchi jamoalar soni 20 ta va undan kam bo'lsa bellashuv 2-bosqichda o'tkaziladi, 1-bosqichda yetarli ball to'plagan

jamoalar soni 8 nafardan oshmagan taqdirda 2-bosqich o'tkazilmasdan qoldiriladi vajamoalar 3-bosqichga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritadi).

8. 8. Bellashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

**9. 1-bosqich**

10. Bellashuvda ishtirok etish istagida bo'lgan talaba-yoshlardan tuzilgan jamoalarni shakllantirish (ishtirokchilar arizalari qabul qilinadi). Ariza kelib tushgan jamolar sonidan kelib chiqqan holda, qur'a tashlash yo'li orqali guruhlarga ajratish.

**2-bosqich** (saralash bosqichi)

56.ball va undan yuqori ball to'plagan jamoalar keyingi boshqichga yo'l oladi;

57. savollar ochiq test shaklida bo'lib, har bir savolga to'g'ri topilgan javob uchun 5 balldan maksimal 25 ball beriladi;

6-8 savollar yopiq test shaklida bo'lib, har bir savolga to'g'ri topilgan javob uchun 10 balldan beriladi maksimal 30 ball beriladi;

9-savol korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dunyo reytingida yuqori o'rinda turgan xorij davlatlari tajribasi bo'yicha berilgan 10 ta savolga javob yoziladi, har bir to'g'ri yozilgan javob uchun 2 balldan maksimal 20 ball beriladi;

10-savol muammoli vaziyat korruption huquqbazarlik sodir etilgan muammoli vaziyatni to'g'ri baholay olish, qaysi atamaga mos kelishini aniqlash, holat yuzasidan mavjud etiborli jihatlarni ajratish va bunday holatlarni oldini olish uchun o'z takliflarini asoslab yoziladi. Berilgan javoblar hakamlar hayati tomonidan maksimal 25 ball bilan baholanadi.

Berilgan savollarga javob yozish uchun jamoalarga "savollar varaqasi" tarqatiladi va javoblarni yozish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi, faqat 10-savolga yozilgan javobni izohlash uchun jamoalarga 3 daqiqadan vaqt beriladi.

**3-bosqich** (saralash bosqichi )

Ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va "Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun asosida bilet savollari tuziladi va jamoalarning har bir ishtirokchisi bilet tanlab oladi hamda ushbu bilettagi savolga javob beradilar har bir to'g'ri javob uchun 10 balldan beriladi va jamoalar ushbu shartda maksimal 60 ball to'plashlari mumkin bo'ladi.

3-bosqichda eng yuqori ball to'plagan 6 ta jamaa hal qiluvchi 4-bosqich (yakuniy)ga yo'l oladi,

**4-bosqich** (yakuniy bosqich)

Bellashuvning yakuniy bosqichi quyidagi **3 ta shart** asosida o'tkaziladi:

**1-shart**, Tanishtiruv sharti, Jamoa nomini tanlay olganligi, ijodiy tarzda o'ziga xos sharxlay olishlari, korruptsiyaga qarshi munosabatni shakllantira olishi, korruptsiyaning salbiy jihatlarini ko'rsata olishi, o'ziga xos kreativ chiqishlari, saxnada o'zini tutish madaniyati hisobga olinadi, ushbu shartga 10 daqiqa vaqt beriladi va 10 ballik tizimda baholanadi.

**2-shart.** Savol-javob sharti. Ushbu shartda har bir jamoadan bittadan ishtirokchiga 10 ta korruption atamalar, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati, davlat hujjatlari, xorij tajribasida qo'llanilgan chora- tadbirlarga oid

savollar beriladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun ishtirokchi 1 ballga ega bo‘ladi. Ishtirokchilarga javoblarni yozish uchun 8 daqiqa vaqt beriladi,

**3-shart.** Teatrlashtirilgan kompozitsiya - Sahna ko‘rinishi sharti. Sahna chiqishlarning ”Korrupsiyaga qarshi birlashaylik” mavzusiga mosligi, o‘tmish va zamonaviy muammolar nuqtayi nazaridan yondashilganligi, ijro davomida ishtirokchilarning sahna madaniyatiga rioya qilishlari 3 ball; Ijodiy o‘ziga xosligi, g‘oyaning orginalligi, ishning sifati, tomoshabinda korrupsiyaga qarshi murosasiz kayfiyat uyg‘ota olishi 7 ball ya’ni maksimal 10 ballik mezonda baholanadi, Ushbu shartga 10 daqiqa vaqt beriladi.

#### **IV.Baholash komissiyasi**

9. Bellashuvda jamoalar universitet rektori tomonidan tasdiqlangan hakamlar hayati tomonidan baholanadi. Bellashuv natijalari hakamlar hayati bayonnomasi orqali tasdiqlanadi.

10. Tashkiliy ishchi guruhgaga quyidagi vazifalar yuklatiladi: bellashuvni sifatli savollar bilan ta‘minlash; bellashuv Nizomni talablariga asosan odilona baholash.

11. Bellashuvda jamoalarning ballari teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hayati tomonidan qo‘sishimcha shart yoki savol beriladi va g‘olib jamoa aniqlanadi.

#### **V. Bellashuv g‘oliblarini taqdirlash:**

12. Bellashuvning g‘olib 1, 2, 3-o‘rin jamoalarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni Reja-moliya bo‘limi hamda bosh hisobchi M.Mahamovlar bellashuv g‘oliblarini rag‘atlantirish bilan bog‘liq sarf- xarajatlarni talabalarni rag‘batlantirish mablag‘lar hisobidan ajratish zimmasiga yuklatilsin va pul mukofotlarini jamoa sardorining hisob raqamiga (kartasiga) o‘tkazib berilsin.

**1-o‘rin jamoasiga** 1.500.000 (bir milyon besh yuz ming) so‘m pul mukofoti;

**2-o‘rin - jamoasiga** 1.200.000 (bir milyon ikki yuz ming so‘m) pul mukofoti;

**3-o‘rin-jamoasiga** 600.000 (olti yuz ming) so‘m pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

#### **VI. Yakuniy qoidalar**

1. .Bellashuv natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib boriladi.

14. Hakamlar hayati tomonidan belgilangan o‘rin yuzasidan izoh berilmaydi.

15. Qabul qilingan qarori muhokama etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

#### **“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusidagi videoroliklar tanlovi Nizomi**

1. Mazkur tanlov O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi.

2. Mazkur nizom talaba yoshlar o‘rtasida “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida tanlovini tashkil etish tartibini belgilaydi.

## **I. Umumiy qoidalar:**

3. Tanlovda universitet talaba-yoshlari ishtirok etadi.

4. Tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, ishtirokchilar soni chegaralanmagan.

## **II. Tanlovni o‘tkazishning maqsadi va vazifalari**

6. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusidagi tanlov universitet talaba yoshlarining korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishlarini taminlash maqsadida hamda talaba yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun o‘tkaziladi.

7. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

Yoshlarni kelajakda korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda kelajak yosh avlod orasida korrupsiyani oldini olishni ta’minlash;

Yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’todli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

## **III. Tanlovda ishtirok etish va o‘tkazish:**

8. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusidagi tanlov universitetdagi barcha talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi.

9. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusidagi tanlov shu yilning noyabr-dekabr oylarida o‘tkaziladi.

10. Tanlov ishtirokchilari o‘zlari tayyorlagan materiallarni ((93)-303-10-23), ((99)-000-17-87) raqamlariga ochilgan telegram tarmog‘iga jo‘natiladi.

## **IV. Tanlov shartlari va baholash me’zonlari**

11. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” tanlovida ishtirokchilar mavzu doirasida video rolik (sherlar, qo‘sish, qisqa metrajli videolar) tayyorlashadi.

12. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” tanlovida taqdim etilgan she’rlar, qo‘sishlar, videolarni mazmuni sifati, motivatsion salohiyatga ega ekanligi;

13. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” tanlovida taqdim etilgan (she’rlar,

qo'shiqlar, videolar) 1-5 daqiqa oralig'ida bo'lishi shart muallif(lar)ning, fakultet nomi va guruh raqami to'liq bo'lishi kerak.

14. "Yoshlar korrupsiyaga yo'q deydi" tanlovida taqdim etilgan materiallari tuzilgan tashkiliy qo'mita tomonidan baholanadi.

## V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

15. "Yoshlar korrupsiyaga yo'q deydi" mavzusidagi videoroliklar tanlovida, g'oliblari tashkiliy qo'mita tomonidan tanlovlар tugaganidan so'ng 3 kun muddatda saralanadi.

16. Bellashuvning g'olib 1, 2, 3-o'rin jamoalarini rag'batlantirish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni Reja-moliya bo'limi hamda bosh hisobchi M.Mahamovlar bellashuv g'oliblarini rag'atlantirish bilan bog'liq sarf- xarajatlarni talabalarni rag'batlantirish mablag'lar hisobidan ajratish zimmasiga yuklatilsin va pul mukofotlarini jamoa sardorining hisob raqamiga (kartasiga) o'tkazib berilsin.

**1-o'rin jamoasiga** 1.500.000 (bir milyon besh yuz ming) so'm pul mukofoti;

**2-o'rin - jamoasiga** 1.200.000 (bir milyon ikki yuz ming so'm) pul mukofoti;

**3-o'rin-jamoasiga** 600.000 (olti yuz ming) so'm pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

## VI. Yakuniy qoidalar

17. Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar universitet va homiylik mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.

### "Korrupsiyasiz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlovi

#### Nizomi

1. Mazkur tanlov O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba yoshlari o'rtasida o'tkaziladi.

2. Mazkur nizom talaba yoshlar o'rtasida "Korrupsiyasiz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil etish tartibini belgilaydi.

#### I. Umumiy qoidalar:

3. Tanlovda universitet talaba-yoshlari ishtirok etadi.
4. Tanlovni tashkil etish, o'tkazish va g'oliblarni aniqlash bo'yicha tashkiliy qo'mita tuziladi.
5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, ishtirokchilar soni chegaralanmagan.

## **II. Tanlovn o'tkazishning maqsadi va vazifalari**

6. "Korrupsiyaz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlovi universitet talaba yoshlarni korrupsiyaz hayotga tayyorlash, yurtimizda korrrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida hamda talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun o'tkaziladi.

7. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

Yoshlarni kelajakda korrupsiyaz hayotga tayyorlash, yurtimizda kelajak yosh avlod orasida korrupsiyani oldini olishni taminlash;

Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'todli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

## **III. Tanlovda ishtirok etish va o'tkazish:**

8. "Korrupsiyaz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlov universitetdagi barcha talaba yoshlari o'rtasida o'tkaziladi.

9. "Korrupsiyaz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlov shu yilning noyabr-dekabr oylarida o'tkaziladi.

10. Tanlov ishtirokchilari 2024-yilning noyabr-dekabr oylaridaga qadar arizalarini yoshlari bilan ishslash ma'naviyat va ma'rifat bo'limiga taqdim etishlari kerak.

11. Tanlov soat 14:00 da madaniyat saroyida bo'lib o'tadi.

12. Tanlovda ishtirokchilari soat 13:30 da madaniyat saroyiga o'zlarining ish qurollari (40-50 sm razmerdagi vatmen qog'oz, Qalam, rang) bilan kelishlari shart.

## **IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

13. "Korrupsiyaz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlovida ishtirokchilar 40-50 sm razmerdagi vatmen qog'oziga mavzu doirasida razm chizishadi..

14. "Korrupsiyaz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlovida chizilgan rasmlarning mazmuni, sifati, motivatsion salohiyatga ega ekanligi, mavzuga taluqliligi, qog'ozning sifati, rasmlarning mavzu doirasida chizilgani, belgilangan vaqt mobaynida chizilganligi;

15. "Korrupsiyaz-hayot" mavzusidagi rasmlar tanlovida chilgan rasmlarning orqa tarafida muallif(lar)ning hamda fakultetning nomi va guruhi raqami

to‘liq bo‘lishi kerak.

16. “Korrupsiyasiz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida chizilgan materiallari tuzilgan tashkiliy qo‘mita tomonidan baholanadi.

## **V. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

17. “Korrupsiyasiz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida, g‘oliblari tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlov tugaganidan so‘ng 3 kun muddatda saralanadi.

18. Bellashuvning g‘olib 1, 2, 3-o‘rin jamoalarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni Reja-moliya bo‘limi hamda bosh hisobchi M.Mahamovlar bellashuv g‘oliblarini rag‘atlantirish bilan bog‘liq sarf- xarajatlarni talabalarni rag‘batlantirish mablag‘lar hisobidan ajratish zimmasiga yuklatilsin va pul mukofotlarini jamoa sardorining hisob raqamiga (kartasiga) o‘tkazib berilsin.

**1-o‘rin jamoasiga** 1.500.000 (bir milyon besh yuz ming) so‘m pul mukofoti;

**2-o‘rin - jamoasiga** 1.200.000 (bir milyon ikki yuz ming so‘m) pul mukofoti;

**3-o‘rin-jamoasiga** 600.000 (olti yuz ming) so‘m pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

19. Tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar universitet va homiylik mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.

## **“Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovi**

### **Nizomi**

1. Mazkur tanlov O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi.

2. Mazkur nizom talaba yoshlari o‘rtasida “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida tanlovini tashkil etish tartibini belgilaydi.

### **I. Umumiy qoidalar:**

3. Tanlovda universitet talaba-yoshlari ishtirok etadi.

4. Tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, ishtirokchilar soni chegaralanmagan.

### **II. Tanlovni o‘tkazishning maqsadi va vazifalari**

6. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovi universitet talaba yoshlarni korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishlarini taminlash maqsadida hamda talaba

yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun o'tkaziladi.

7. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

Yoshlarni kelajakda korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda kelajak yosh avlod orasida korrupsiyani oldini olishni taminlash;

Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'todli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli inteliktual salohiyatlari, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

**111. Tanlovda ishtirok etish va o'tkazish:**

8. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlov universitetdagi barcha talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladi.

9. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovi shu yilning noyabr-dekabr oylarida o‘tkaziladi.

10. Tanlov ishtirokchilari o‘zlarining tayyorlagan materiallarni yoshlar bilan ishslash va ma’naviyat-ma’rifat bo‘limiga taqdim etishlari kerak..

#### **IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

11. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida ishtirokchilar 12-varaqli daftarga mavzu doirasida insho tayyorlashadi.

12. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida yozilgan inshoning mazmuni sifati, motivatsion salohiyatga ega ekanligi, mavzuga taluqliligi, yozilgan inshoda imlo xatolar yo‘qligi hamda yozuv sifati;

13. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida muallif(lar)ning hamda fakultetning nomi va guruh raqami to‘liq bo‘lishi kerak.

14. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida taqdim etilgan materiallari tuzilgan tashkiliy qo‘mita tomonidan baholanadi.

#### **V. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

15. “Biz Korrupsiyaga qarshimiz” mavzusidagi insholar tanlovida, g‘oliblari tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlov tugaganidan so‘ng 3 kun muddatda saralanadi.

16. Bellashuvning g‘olib 1, 2, 3-o‘rin jamoalarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni Reja-moliya bo‘limi hamda bosh hisobchi M.Mahamovlar bellashuv g‘oliblarini rag‘atlantirish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni talabalarni rag‘batlantirish mablag‘lar hisobidan ajratish zimmasiga yuklatilsin va pul mukofotlarini jamoa sardorining hisob raqamiga (kartasiga)o‘tkazib berilsin.

**1-o‘rin jamoasiga** 1.500.000 (bir milyon besh yuz ming) so‘m pul mukofoti;

**2-o‘rin - jamoasiga** 1.200.000 (bir milyon ikki yuz ming so‘m) pul mukofoti;

**3-o‘rin-jamoasiga** 600.000 (olti yuz ming so‘m) pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

#### **VI. Yakuniy qoidalar**

17. Tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar universitet talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi

*Universitetning 2024-yil “08”  
noyabrdagi 435-sonli buyrug‘iga*

**“Antikorrupsiya bilimdoni” mavzusida bilimlar bellashuvining  
HAKAMLAR HAY’ATI TARKIBI**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Z.Xalmirzayev	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i-hakamlar hay’ati raisi
3.	T.Tajibayev	Yuridik bo’lim boshlig’i, a’zo
4.	I.Sarimsoqov	Universitet jamoatchilik bilan aloqalar bo’limi, a’zo
5.	S.Eshpo’latov	Universitet yoshlar etakchisi, a’zo
6.	N.G’afforov	O‘zbek tili va chet tillari kafedra mudiri, a’zo

**NAMUNA**

**Yoshlar masalalari, ma'naviy-  
ma'rifiy ishlar bo'yicha bиринчи  
prorektori Sh.Mirzanovga**

\_\_\_\_\_ **kafedrasi mudiri**  
\_\_\_\_\_ **dan**

**ARIZA**

"Antikorrupsiya bilimdoni" mavzusidagi bilimlar bellashuvda kafedra nomidan  
"\_\_\_\_\_ " jamoasi sifatida  
quyida ma'lumotlari keltirilgan talabalar ishtirok etishi uchun ruxsat so'rayman.

T/r	F.I.O.	Guruh raqami	Telefon raqami	Imzo
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				